

NATAN MALLAYEVNING O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI, NAVOIY IJODINING O‘RGANILISHIGA OID ILMIY MAQOLALARI (O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI MASALALARI JURNALI MISOLIDA)

Temirova Anora Cho‘yan qizi

Chirchi davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi, Toshkent iqtisodiyot va peagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligining 60-yillardan bugungi kunlargacha bo‘lgan faoliyati Navoiy lirikasi masalalarini poetika ilmining nazariy asoslari, spetsifik qonuniyatlari nuqtai nazaridan ilmiy o‘rganishning hajm va ilmiy salohiyat, salmoq jihatidan yuksak taraqqiyot bosqichiga chiqayotganligidan guvohlik beradi.

N.Mallayevning “O‘zbek adabiyotida g‘azal va uning rivojida Navoiyning roli” haqidagi maqolasi 1961-yil 1-sonining eng birinchi maqollaridan biri bo‘lib nasr qilingan hamda O‘zbek adabiyotida g‘azal va uning rivojida Navoiyning roli haqidagi eng qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan.

Maqolada Navoiyning g‘azal haqidagi izlanishlari, uning insoniyatga bo‘lgan qarashlari, axloqiy jihatlari va zamondoshlariga qoldirgan merosi kiritilgan. Mallayev, asarda Navoiyning falsafiy fikrlari va ulug‘ shoir sifatidagi adabiy merosini, o‘zining so‘z san‘ati orqali qanday ifodalaganini tushuntiradi. G‘azal Navoiy ijodida eng mashhur shakllardan bo‘lib, uning ma‘no injularini go‘zal tasvirlaydi.

Kalit so‘zlar: lirik, g‘azal, ma‘naviy, badiiy-poetik, g‘azalchilik, xalq go‘shiqdari.

O‘zbek tili va adabiyoti masalalari jurnalining 1961-yil 1-sonida adabiyotshunos N.Mallayevning “O‘zbek adabiyotida g‘azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida”gi [1] maqolasi e‘lon qilingan. o‘tmish adabiyoti tariida gazal janrining ujudga kelishi, taraqqiy etishi, takomillashuv jarayonida qanday o‘zgaishlarga duch kelgani, mavzu va mazmun jihatidan boyitilgani, bu bosqichda Qabul Muhammad, Rudakiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Rabg‘uziy, Xorazmiy singari ijodkorlarning g‘azalchilikdagi o‘rni va ahamiyati olmnig diqqatini tortadi.

Olim maqolasida g‘azal janrining o‘ziga xos xususiyatlarini tekshirib, g‘azalning Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan va uzoq tarixga ega bo‘lgan bir janrligini ta‘kidlaydi. Natan Mallayevning fikricha, g‘azalga berilgan ta‘riflardan eng mukammali Qabul Muhammadning “Haft Qulzum”asaridagi ta‘rifdir: deya uning 1230-yilda Laknauda nashr qilingan VI bo‘limning 44-45-sahifalarini forschadan tarjima bizniki deya keltiradi. “Bilgilki, g‘azalning lug‘aviy mazmuni xotinlarga sevgi va ular bilan munosabatdir. Va uning istilohiy (terminologik) mazmuni bir necha baytning bir qofiya va vazn bilan birikuvidir. Bunday she‘rning avvalgi baytining har ikki misrasi qofiyalanadi, uni matla va manba deb ataydilar. Ikkinchi baytining ham ikki misrasi qofiyalangan bo‘lsa, u matlaga zeb va husndir. Oxirgi baytini maqta va xotima deydir. Va shart shuki, u 12 baytdan oshmasligi kerak... Va ba‘zilar 19 bayt g‘azalning

chegarasi deganlar... Ammo buni Keyingi shoirlar 21 baytgacha deydilar... Lekin g‘azalning chegarasi 19 baytgachadir” [2].

N.Mallayev g‘azal uzoq va murakkab taraqqiyot bosqichlarini kechib o‘tgani va har bir xalqning badiiy so‘z san‘atida o‘z maxsus xususiyatlari bilan takomillashib borganini ta’kidlaydi. Shunga ko‘ra, Fors-tojik adabiyotda g‘azalning ilk namunasi X asrda, Rudakiyning ijodida uchrashini yozadi.

Olimning fikricha fors-tojik tilidagi adabiyot g‘azalchilikda XII asrda Sanoiy va Attor kabi mutasavvuf shoirlarigina emas, balki Muizziy, Imodiy So‘zani, Am‘ak, Rashidaddin Vatvot kabi iste‘dodli shoirlarni ham yetishtirdi va ana shu shoirlar g‘azal janrining rivojida; katta rol o‘ynadilar.

N.Mallayev tadqiqotida XIII—XIV asrlarda g‘azal janri rivojiga hissa qo‘shgan Sa‘diy She‘ roziy, Xofiz Sheroziy, Xisrav Dehlaviy va Kamol Xo‘jandiy kabi g‘azalnavislar nomini tilga oladi. XV asr fors-tojik tilidagi adabiyotda g‘azalning mislsiz ustози Abdurahmon Jomiydir ekanligini maxsus qayd etadi.

G‘azalning o‘zbek adabiyotida dunyoviy yo‘nalishning bir janri sifatida vujudga kelish haqida gapirar ekan N.Mallayev adabiyotning barcha taraqqiyot bosqichlarida uning tematik-g‘oyaviy va badiiy-estetik rivoji bilan birga taraqqiy qilganiga e‘tiborni qaratadi. “G‘azalning rivoji adabiy olimlarning kurashi bilan estetik tafakkurning taraqqiysi bilan uzviy bog‘lidir. Binobarin, turli ijtimoiy va adabiy-estetik pozitsiyadagi shoirlarning g‘azal poetik va boshqa shakliy o‘xshashliklariga qaramay, turlicha mohiyatga ega”dir.

N. Mallayev g‘azal haqidagi tekshirishlarini davom ettirib, Xalq og‘zaki ijodi o‘zbek g‘azalchiligining vujudga kelishi va rivojlanishi uchun boy ma‘naviy, badiiy-poetik bir manba bo‘lganligini qayd etadi. N.Mallayev xalq qo‘shiqlari g‘azallarga boy ma‘naviy ozuqa bergani, ularning xalqchilligiga, milliy ruhiga tili va badiiy uslubiga samarali ta‘sir etganligini Lutfiy, Navoiyning baytlari misolida dalillaydi:

Qon bo‘ldi ko‘ngul firoqingizdin
Jon kuydi ham ishtiyoqingizdan (Lutfiy)

Bzam aro gar yo‘qnay ila daf
Ham yomon ermas un bila kaf (Navoiy)

kabi, shuningdek boshqa shoirlarning ham xalq qo‘shiqlariga o‘xshash ko‘plab sodda, ravon, jo‘shqin va musiqiy g‘azallari vujudga kelganligini sanab o‘tadi.

Xalq qo‘shiqlarining g‘azallarga ta‘sirini vazn masalasida ham ravshan ko‘rish mumkin. “Turkiy” deb yuritilgan xalq Oshiqlarining vazni (c) g‘azallardan ham keng o‘rin oladi, Olim N.Mallayev Navoiyga oid manbalarni birma-bir o‘rganib taahlilga tortish jarayonida, “Mezonul avzon”da xalq qo‘shishiqlari haqidagi fikrlarni shunday keltiradi: “...Yana surudedurkim, ani “Turkiy” debturlar va ul g‘oyatdin tashqari dilpisand va ruhafzo va nihoyatdin mutajoviz, aysh ahlig‘a sudmand va majolis oro suruddur., va ul dog‘i ramali musammani maqsur vaznida voqedur...” deydi. G‘azal

janining samaradorligida Shoir Otoyining orni ham beqiyosdir. Uning Tanlangan asarlar. Toshkent 1958-yilda nashr qilingan devonining 8-sahifasida 260 g'azaldan 109 tasi ramali musammani maqsur vaznda bitilganligi hqidagi ma'lumotlar ta'kilanadi. G'azalning qo'shiqlarga muvofiqlashgan holda yaratilishi kuy orqali uning keng jamoatchilikka borib yetishini ko'zda tutish bilan ham bog'liqdir.

Ko'p g'azallarga xamsa asarlaridagi qahramonlar obrazi quyuuq mazmun va jilo bergani, xalq san'atkorligi sayqal bag'ishlagani, xalq maqollari, ta'birlari va xalq yumori latofat qo'shgani ma'lum. unga jumladan Navoiygacha yetishgan otoqli san'atkorlardan Otoyining xalq ertaklaridagi "suv parisi" obrazi asosida yaratgan:

Ul sanamkim, suv yqosid paritek o'lturur
G'oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo'lur

Matlali g'azali yoki Lutfiyning xalq maqollari tizmasi asosida yaratgan:

Ayog'ingg'a tushar har lahza geso'
Masaldukim: "Chirog' tubi qorong'u"

g'azali va yana ko'p-ko'p adabiy yodgorliklar yaqqol misol bo'la oladi. G'azal butun taraqqiyoti davomida xalq og'zaki ijodidan keng bahramand bo'ladi, xalq asarlariga, xalqning hayoti, ruhi va umid-orzulariga yanada yaqinlashib boradi.

Shu bilan birga, o'zbek adabiyotida g'azal yozma adabiyotning tajriba va an'analari zaminida vujudga keldi va rivojlandi. "Qutadg'u bilig"dagi bahor tasviri va qarilik ayyomiga bag'ishlangan parchalarga o'xshash lirik she'rlar o'zbek g'azalchiligining ma'lum ildizlari ham bo'ldi.

O'zbek adabiyotida g'azalchilik fors-tojik tilidagi adabiyot (adabiyotlar) g'azalchiligidan birmuncha keyin vujudga keldi hamda fors-tojik g'azalchiligidan, uning tajribalaridan ta'lim oldi, an'alarini davom ettirdi va rivojlantirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маллаев Н. Ўзбек адабиётида ғазал ва унинг ривожиди Навоийнинг роли ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1961. – № 1. – Б. 3-13
2. Mallayev N. O'zbek adabiyotida g'azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – 1961. – № 1. – 3 b

